



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



## SAMARQAND va CHELYABINSK

o'rtaida aviaqatnov yo'lgan qo'yildi

Rossiya mintaqalari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkmalash maqsadida amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'lgan viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Chelyabinsk viloyati gubernatori Aleksey Tekster bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida Samarqand va Chelyabinsk viloyatlarining iqtisodiy imkoniyatlari va investitsion salohiyati, hamkorlik yo'naliishlari haqida fikr almashildi.

E.Turdimov Chelyabinsk viloyati rahbarlari va tadbirkorlarini Samarqandga taklif qilib, sanoat, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida birgalikda loyihalarni amalga oshirish ikki tomon uchun ham manfaatlari bo'lismeni ta'kidladi.

O'z navbatida A.Tekster bu takliflarni bo'lgan-quvvatlab, ikki tomonlhma aloqalarini rivojlantrishga tayyorligini bildirdi. Shuningdek, Toshkentda o'tkazilgan O'zbekiston va Rossiya mintaqalari biznes-forumida kelishilgan Chelyabinsk va Samarqand o'rtaida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni tezroq yo'lgan qo'yish lozimligini qayd etdi. Shundan so'ng Chelyabinsk shahri-

da Samarqand va Chelyabinsk viloyatlarini tadbirkorlarining biznes-forumi o'tkazildi. Tadbir avvalida Samarqand viloyatinning iqtisodiy ko'rsatkichlari, tadbirkorlar uchun yaratilgan quayliklarni haqida taqdimat qilindi.

Forumda ikki tomonidan 100 dan ortiq tadbirkorlar ishtirok etib, o'z mahsulot va xizmatlari haqida ma'lum berdi. O'zaror manfaatlari hamkorlik yuzasidan muzokaralar o'tkazildi.

Viloyat hokimligi axborot xizmatining ma'lum qilishicha, forum davomida viloyat hokimi E.Turdimov Chelyabinsk viloyatining yirik tadbirkor va kompaniyalarini rahbarlari bilan ham uchrashib, hamkorlik bo'yicha kelishuvlarga erishdi.

Viloyatimiz delegatsiyasi Chelyabinsk viloyati sanoatni rivojlantrish jamg'armasi hamda "Moy biznes" xizmat ko'rsatish markazi faoliyatini bilan ham tanishdi.

**O'zbekiston Respublikasi**  
Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalariga joriy yilning birinchi yarmida viloyat aholisidan 68,8 mingga yaqin murojaat kelib tushgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13 foizga oshgan. Ushbu murojaatlarning 50 ming 503 tasi, ya'ni 81 foizi qanoatlantirilgan. 525 tasi uzoq muddatli nazoratga olinan, 10 mingdan ortig'i bo'yicha tushuntirish berilgan va 763 tasi rad etilgan, 212 tasi ko'rmasdan qoldi-rligan.

Albatta, har bir fuqaro o'zi va boshqalar bilan birga davlat organlari, tashkilotlarga murojaat qilish huquqiga ega. Bu yurdoshlarimizning konstitutsion huquqlaridan biri hisoblanadi. Murojaatlardan belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi va bu haqda fuqarolarga javob beriladi.

Prezident Xalq qabulxonalarini fuqarolarning ana shu huquqlaridan foydalanshlari ta'minlashga xizmat qilib kelayotgan institutlardan beriladi.

Joriy yilning dastlabki olti oyi natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, murojaatlarni ijobji hal etish darajasi Samarqand (29 foiz), Toyloq (34 foiz), Past Darg'om (34 foiz) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on (34 foiz) va Samarqand (34 foiz) shaharlarida past bo'lgan. Viloyatdagi Xalq qabulxonalarini nazoratida ko'rib chiqilgan 47 ming 266 ta murojaatning 18 mingga yaqini (39 foizi) ijobji hal etilgan.

Xalq qabulxonalariga o'tgan davrda jismoniy va yuridik shaxslardan jami 4312 ta yozma va og'zaki murojaat kelib tushgan bo'lib, ularda 5 mingdan ortiq masala ko'tarilgan. O'tgan yilning shu davri bilan qiyoslaganimizda murojaatlardan 2021 taga kamaygan. Lekin Virtual va Xalq qabulxonalariga Samarqand shahri hamda Past Darg'om, Urgut, Paxtachi va Payariq tumanlaridan murojaatlardan ko'paygan.

## Fuqarolar nega davlat rahbari qabuliga kirmoqchi?

Murojaatlarda asosan, pensiya va ijtimoiy ta'minot (7301 ta), ijobi ishi, aliment va qarz undirish (6470 ta), elektr energiyasi (5402 ta) va gaz ta'minoti (4956 ta), huquqbazarliklar (4724 ta), moddiy yordam va homiylik (3129 ta), huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari faoliyati (1763 ta), davolash va tibbiy xizmat ko'rsatish (1700 ta), uy-joy bilan ta'minlash (1502 ta), bandlik (1427 ta), yo'il infratuzilmasi (1325 ta) bilan bog'liq masalalar eng ko'p qayd etilgan. Shu bilan birga, bank kreditlari, uy-joy fondini saqlash va boshqarvchi tashkilotlar faoliyati, yo'il harakati xavfsizligi, sudlarda fuqarolik ishlari ko'riliши bilan bog'liq murojaatlarning dolzarbli oshgan.


Yarim yil davomida tushgan takroriy murojaatlardan 9425 tani tashkil etgan va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34 taga oshgan. Bu fuqarolarning muammolariga o'z vaqtida yechim topilmagan yoki murojaatlarda ko'tarilgan masalalar yana takror sodir bo'lganidan dalolat beradi.

Jumladan, takroriy murojaatlardan elektr enerjisi ta'minoti bo'yicha 414 ta (75 foizga), gaz ta'minoti bo'yicha 165 ta (32 foizga), bank kreditlari va tadbirkorlik yuzasidan 138 ta (383 foizga) pensiya va ijtimoiy ta'minot bo'yicha 135 ta (22 foizga), sudlarda fuqarolik ishlari ko'riliishi yuzasidan 71 ta (69 foizga) oshgan. Eng ko'p takroriy murojaatlardan Samarqand shahri (1116 ta), Past Darg'om (1086 ta), Kattaqo'rg'on (864 ta), Payariq (786 ta), Paxtachi (698 ta) va Urgut (674 ta) tumanlaridan kelib tushgan.

Tahillilar shuni ko'rsatmoqdaki, sektorlar

Poytaxtimizdag Olimpiya va Paralimpiya shon-shuhra-ti muzeysi O'zbekiston sport delegatsiyasini Parij-2024 XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlariga tanta-nali kuzatish marosimi o'tkazildi.

Boks bo'yicha jahon championi, Osiyo o'yinlari g'olibi Abdumalik Halakov hamda qilichbozlik bo'yicha Osiyo o'yinlari g'olibasi, "Shuhurat" medali sohibasi Zaynab Dayibekova Parij-2024 Olimpiya o'yinlarida



Nigina O'ktamova:

## Maqsadimiz – yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarish

O'zbekiston sport delegatsiyasining bayroq dorlar bo'lishi rasman e'lon qilindi.

Olimpiada championlari 200 ming, kumush medal sohiblari 100 ming, bronza medali sovordinorlari esa 50 ming dollarдан pul mukofoti bilan taqdirlanishi aytildi.

Marosimda boks bo'yicha jahon championi bo'lgan birinch o'zbek qizi, samarcandlik Nigina O'ktamova ham so'zga chiqdi.

- Davlatimizning e'tibori va Yurtboshimizning sportchilarni bo'llab-quvvatlashlari natijasida mamlakatimizda sport rivojlanaydi, yutuqlarga erishyapmiz, - dedi Nigina O'ktamova. - Xu-

susan, qo'iga kiritgan litsenziyalarimiz uchun ham pul mukofotlarini oldik. Bu bizga Parij-2024 Olimpiadasi oldidan boshlang'ich rag'bat va katta motivatsiya bo'ldi. Olimpiadaga munosib tayyorgarlik ko'rganmiz, maqsadimiz – olimpiada championi bo'lib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarish.

Hozirga qadar olimpiya o'yinlariga yo'llanmani qo'iga kiritgan samarcandlik sportchilar 14 nafarga yetdi. Yo'llamalar uchun reyting ballar to'plash davom etmoqda va viloyatimizdan 16 nafardan ziyyod sportchining olimpiadaga borishi kutilmoqda.

Xalq qabulxonalarida

aholisidan rahbarlar shaxsiy qabulini so'rab 489 ta, jumladan, davlat rahbari qabuliga kirish masalasida 208 ta murojaat kelib tushgan.

Muammolar joylarda o'z yechimini topmaganligi tufayli 6 oy davomida 393 nafar fuqaro 660 ta masala bo'yicha Toshkent shahriga borib, Prezident Xalq qabulxonasiga murojaat qilgan. Bu fuqarolarning 208 nafari Samarqand shahridan, 95 nafari Past Darg'om, 53 nafari Toyloq, 51 nafari Urgut va 41 nafari Paxtachi tumanida yashovchilardir.

Viloyat tashkilotlarining ko'p murojaat qiluvchi fuqarolar bilan manzilli ishshash darajasi ham sustligicha qolmoqda. Jumladan, yarim yilda 333 nafar fuqaro 10 martadan 50 martagachasi, 10 nafari 50 martadan ko'p murojaat qilgan.

Yarim yillik faoliyat sarhisobi hamda aholining talab va takliflarindan kelib chiqib, davlat hokimiyatni va boshqaruv organlari rahbarlari, sektor mas'ullari fuqarolarning murojaatlari bilan ishshash, joylarda sayyor qabullari o'tkazish orqali ular bilan bevosita muloqot qilib, mavjud muammo va kamchiliklarga o'z vaqtida yechim topishlari zarur bo'ladi. Binobarin, yurtimizdagi islohot va o'zgarishlar inson manfaatlari qaratilgan, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi qat'iy qoidaga aylangan ekan, buni barcha darajadagi rahbarlar unutmasligi lozim.

**Mamatjon TURDIYEV,**  
**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi mudiri.**

**KUN  
HIKMATI**

Inson o'z xatosini angladimi - demak, u tajriba ortirdi

2024-yil 4-iyul, payshanba,  
78 (23.955)-son

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

**Yoshlar – yurt ertasi**



## Madina – kelajak bunyodkori

Madina Shodiyeva Payariq tumanida dunyoga kelgan. U bolaligidan tarjimon bo'lishni niyat qilardi. Madinaning qiziqish va intilishlarini vaqtida payqagan ota-onasi unga yetarlicha imkoniyat yaratib berdi. Ular o'zlar uchun amalga oshmagan olyi ma'lumotli bo'lish orzusining ro'yibi farzandlari taqdirda ko'rishni maqsad qilgandi va bunga erisha oldi.

Madina avval tumandagi 6-maktabda, keyin esa kollejni bitirib, Samarqand davlat chet tillar institutiga xitoy tili yo'naliishi bo'yicha o'qishga kirdi.

- Xitoy tilini tanlaganim bejiz emas, - deydi u. - To'g'ri, o'rganish ancha qiyin, ammo qiziqarli. Shu bilan birga manfaatlari. Sababi keyingi paytda O'zbekiston va Xitoy hamkorligi yaxshilanmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizga xitoylik sayyoohlarning oqimi yil sayin ortib boryapti. Tarjimonlikka qiziqishim sababli talabalik davrimdanoq shu ishl shug'ullanish maqsadida Registon ansamblida amaliyot o'taganman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan 30-iyun – Yoshlar kuni arafasida bir guruh yigit-qizlar «Kelajak bunyodkor» medali bilan mukofotlandi. Ular orasida Madina Shodiyeva ham bor.

- Prezident bilan uchrashish eng katta orzularimidan biri edi,

- deydi M.Shodiyeva. - Bunga erishganimdan kursandman. Mukofotni davlatimiz rahbaridan olar ekanman, menga Xitoy va O'zbekiston hamkorligini mustahkamlash yo'lida olib bo'rilayotgan ishlarga munosib hissa qo'shishim zarurligini aytildar. Bu menga katta mas'uliyat yukladi. Ana shunday yutuqlarga erishish yo'lida menga ko'makdosh bo'lgan ota-onadan, ustozlarimdan, institutda menga xitoy tilini o'rgatgan o'qituvchilaridan, Registon ansambli jamoasidan minnadtormani.

Mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, yaratilayotgan imkoniyatlar Madina Shodiyeva kabi millionlab o'zbekistonlik yigit-qizlarga kuch-g'ayrat, shijoat bag'ishlab, ularni yangi marralar sari boshlaydi.

**Hushnozabonu NIYOZOVA.**

**Tarsaki**

Viloyat hokimligida o'tkazilgan muhokama da qayd etilishicha, joriy yilning o'tgan davrida viloyat bo'yicha "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 12 ming 488 nafar yoshlarning 9054 nafari daftardan chiqarilgan.

## "Daftar" dagi yoshlarga shumi e'tibor?

Ammo, yil boshida "Yoshlar daftari"-ga kiritilgan bo'lishiga qaramasdan, hozirgacha Samarqand shaharida 38 nafar, Qo'shrabot tumanida 15 nafar, Urgut tumanida 11 nafar, Narpay tumanida 25 nafar yoshlarga umuman e'tibor berilмаган, biron amaliy yordam ham ko'sratilmoqda.

Eng achinarilishi, 2023-yilda daftarda kiritilgan bo'lishiga qaramasdan Payariqda 195 nafar, Narpayda 168 nafar, Bulung'urda 88 nafar, Ishtroncha 87 nafar, Urgutda 80 nafar, Toyloqda 76 nafar va Samarqand shahrida 58 nafar yoshlarga hozirgacha biron turdag'i yordam berilmoqgan.

Tuman va shahar hokimliklari yaqinda o'tkazilgan yoshlar oyligi davomida turli xil bo'lar-bo'imas tadbirlar o'tkazgandan ko'ra, shu yoshlarga e'tibor bersa bo'lmasmidi?..



## Besh oyda 11 loyiha

qolgan 85 loyiha yil yakunigacha ishga tushadimi?

Joriy yil Past Darg'om tumanida hududiy investitsiya dasturi doirasida qiyomi 89 million dollarlik 96 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Ushbu loyihalari ishga tushirilishi natijasida 1589 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Shu paytgacha 6,6 million dollarlik 11 ta loyiha ishga tushirilgan.

Loyihalarni sohalari kesimida qaraydigan bo'sik, sanoatda 4 ta, xizmat ko'rsatishda 5 ta, qishloq xo'jaligidagi 2 ta loyiha uchun 6,6 million dollar sarmoya jabol etilib, 175 ta yangi ish o'rni yaratildi, - deydi tuman hokimi o'rbinbosari Aziz G'afurov. - Masalan, "MAX BOTTLERS" MChJ negizida 25 milliard so'mlik "Qurilish mollari bozori" loyihasi ishga tushirilib, 20 ta yangi ish o'rni, "Sherzod Reliable Stroy" MChJ tomonidan qiyomi 1,4 milliard so'mlik "Temir beton devor, quvurlar va lotok ariqlar ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi" doirasida 5 ta yangi ish o'rni yaratildi.

"ALFATERM PLAST" MChJ tomonidan 2023-yilda 36 milliard so'mlik va 2024-yil biringchi chorakda 7,4 milliard so'mlik polietilen quvur va fittinglar, bochkalar, tsintefon ishlab chiqarildi. Hozirda korxona tomonidan Qozog'istoniga 50 ming dollarlik polietilen boch-kalar eksporti rejalashdirilmoqda.

Bundan tashqari, 2024-yilning dastlabki to'rt oyida investitsiya dasturi doirasida 10,2 million dollar xorijiy investitsiya mablag'larini o'zlashtirildi. "Ayisha Ar" MChJ QK negizida parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklarini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hisobiga 4,3 million dollar va boshqa qo'shimcha hajmlar hisobiga 0,6 million dollar xorijiy investitsiya mablag'larini o'zlashtirildi.

Tumanda 2024-yilda 13,9 million dollarlik sanoat hamda 9,6 million dollar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish rejalashdirilgan. Yilning besh oyida 5,9 million dollarlik mahsulot eksportga chiqarildi. Mahsulotlarimiz asosan Xitoy, Turkiya, Vietnam, Polsha, Eron, Rossiya, Tojikiston hamda Afg'oniston davlatlariga eksport qilinmoqda. Shu bilan birga, tumandagi ayrim korxonalar eksport rejasini bajarishda ortda qolmoqda. Buning sabablari tahlii qilinganda, qoloqliking asosiy qismi "Samarcand kamalak invest tekstil" MChJ hissasiga to'g'ri keldi. Bu jahon bozorida ip-kalava narxining keskin tushib ketishi bilan bog'liq. Ma'lumot uchun, o'tgan yili ip-kalavaning jahon bozoridagi narxi bir-kilogramiga 3,5 dollar bo'lgan bo'lsa, joriy yilda ushbu mahsulotning narxi 2,2 dollarni tashkil qilmoqda.

- Eksport rejasining bajarilishini ta'minlash maqsadida "Euroasia Feed Pro Samarkand", "Sam Elektr Invest", "Rainbow Agriscience" hamda "Sam Gloriya Granit" MChJlar eksport faoliyatiga yangidan jaib qilindi, - deydi tuman hokimligi mutaxassisasi Muhammad Mahmudov.

- Ushbu korxonalar tomonidan hozirgacha 434 ming dollarlik mahsulot eksporti amalga oshirilgan. Bugungi kunda ushbu korxonalar tomonidan omuxta yem, kabel mahsulotlari, kimyovaly o'g'itlar hamda marmar toshlar eks-

porti yo'iga qo'yildi.

Tumanda 500 dan ortiq sanoat korxonasi faoliyat yuritayotgan bo'lib, ushbu korxonalar ning 4 tasi yirik va 418 tasi esa chichik korxona hisoblanadi. Shundan qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida 155 ta, oziq-ovqat sanoatida 107 ta, mebelchilik sohasida 76 ta, tekstil va to'qimachilik sohasida 49 ta, elekroteknika 4 ta va boshqa sohalarda 131 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu korxonalar tomonidan yilning dastlabki uch oyida 361 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Ya'ni, ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,3 foiziga o'sgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tumanning Kimyogarlar massivi, Juma shahri, Gulobod, Oltiqahramon hamda Go'zalkent mahallalarida erkin iqtisodiy zona hamda kichik va yoshlar sanoat zonalari tashkil etilgan. Bugungi kunda ushbu hudojdardan jami 9 gektariga yaqin yer maydoni aukson savdolari orqali tadbirkorli subyektlariiga taklit etilmoqda.

Tumanning Chimboyobod massivida yangi sa-noat hudojdini barpo etish uchun 234,3 hektar

yer maydoni tanlanib, hozirda ushbu yer maydonini aukson savdolariiga chiqarish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

- "Samoplastservis" MChJ negizida ucta korxona tashkil etilib, eshik-romlar uchun rezina, alumin va PVX profillar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda, - deydi "Samarcand polimer" MChJ rahbari Otabek Eshonqulov. - Birgina "Samarcand polimer" MChJda "Biko" brendi ostida PVX profillar, eshik-romlar ishlab chiqarilmoqda. Hozirgacha 3 kameralli plast-massa profillar ishlab chiqarayotgandik, shu oydan 4 kameralli, 6 ming seriyali shunday mahsulot chiqarishni yo'iga qo'yidik. Bu "ASA" uslubi deyladi, ya'ni ikki tomoni ikki xil rangda bo'ladи. Rejaga ko'ra, yil yakunigacha 5 kameralli 7 ming seriyadagi zamonaviy plastmassa mahsulotni bozorga chiqarishni mo'ljallayapmiz. Korxonamiz oyiga 250 tonna PVX ishlab chiqarish quvvatiga ega. Hozir esa 150 tonna mahsulot chiqaryapmiz. O'tgan yilda 50 milliard so'mdan ortiq mahsulot sotgan bo'lsak, joriy yil boshidan buyun 15 milliard so'mdan ortiq mahsulot eksport qilindi. Korxonamizda 120 nafta ishchi mehnati qilayotgan bo'lsa, yangi mahsulotlarni o'zlashtirishimiz bilan yana qo'shimcha ish o'rinnari yaratiladi.

Tumanda tadbirkorlik subyektlari soni bilan birga mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham yil sayin ortib bormoqda. Hozirda mahsulotlar Markaziy Osiyo va MDH davlatlariga sotilayotgan bo'lsa, yaqin vaqtida eksport geografiyasi ni kengaytirib, xalqaro bozorlarga ham mahsulotlarimiz yetib borish choralarini ko'rilmoxda.

O'ktam XUDOYBERDIYEV,  
"Zarafshon" muxbirasi.

Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan press-tur o'tkazildi. Unda boshqarma boshlig'i Salohiddin Sattorov hamda boshqarma mas'ul xodimlari aholiga sifatlari huquqiy yordam ko'rsatish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berdi.

Dastlab "Mahalla yordami" telegram boti taqdimoti bo'lib o'tdi. Mazkur bot viloyat adliya boshqarmasi tomonidan mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

— Mazkur bot orqali dastlabki bosqicha faqat ijtimoiy daftarlari hamda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimiga kiritilgan fuqarolar qonunchilikda berilgan imtiyoz turlari, ulardan qanday foydalanan mumkinligi, qaysi vakolatlari organga murojaat qilish, imtiyozlarni qo'llash tartibi va muddatlar haqidagi batafsil ma'lumot olish mumkin, - dedi S.Sattorov. — Mazkur imtiyozlarni qo'llash bo'yicha qonunbu-zilish holatlari aniqlangan taqdirda adliya boshqarmasiga murojaat qilish imkoniyati yaratilgan.

Boshqarma tomonidan "Mahalla yor-

## Qoradaryoda 330 metrlik zamonaviy ko'prik barpo etilyapti


Samarqand shahrini yangi qu-rilayotgan Shirin shaharchasi bilan bog'laydigan Qoradaryo ustidagi ko'prik qurilishi jadal olib borilmoqda.

Viloyat avtomobil yo'llari bosh bosh-qarmasi hamda "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat muassasasi tomonidan tashkil etilgan press-tur ishtirokchilari viloyatdagi yirik ko'prikning qurilishi bilan tanishdi.

- Ayni vaqtida 35 metr chuqurlikda 298 ta beton ustun o'rnatib bo'lindi, - deydi uchastka boshlig'i Yusuf Mama-rahimov. - Daryoning o'ng qirg'og'ida tuproq tashish, burg'ulash va beton quyish ishlari davom etmoqda. 120 nafar quruvchi-muhandis va ishchilar mehnat qilayotgan ko'prik qurilishi 2022-yilda boshlangan bo'lib, hozirgacha 25 foiz ishlar bajarildi.

"1-Ko'prikqurilish otryadi" unitar korxonasi bosh pudratchiligidagi amalga oshirilayotgan mazkur ulkan inshoot daryodan 13,5 metr, M-39 avtomobil yo'li ustidan esa 12 metr balandlikdan o'tib, Samarqand xalqaro aeroportiga olib boruvchi yo'iga kelib qo'shiladi.

- Loyiha qiyomi 57 milliard so'm bo'lgan umumiyyat uzunligi 330 metrni tashkil etuvchi ushbu ko'prikda 4 ta asosiy yo'l quriladi, - deydi "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi



xizmati" davlat muassasasi direktori o'rbinbosari Akbar Mirzayev. - 2026-yil yakunigacha foydalanimishga topshirilishi ko'nda tutilgan ko'prikning qurilish ishlari qurilishi qaribiga 35 milliard so'm sarflandi. Barcha ishlar rejada belgilanganidek davom etmoqda.

Shuningdek, jurnalistlar Samarqand shahridagi Universitet xiyobon, Panjaket ko'chasidan M-37 avtomagistralligacha bo'lgan 3,8 kilometr yo'lni ta'mirayotgan "New Tech-Samarqand" MChJ yo'lsozlar iши bilan ham tanishdilar.

- Hozirgacha yo'ning 1 kilometridagi ishlar yakunlandi, - deydi korxona mutaxassisasi Jamol Rahimov. - Eniga 14

metrni tashkil etuvchi ko'chaning ikki chetidagi ariqlar betonlashtirilib, qaribiga 2 kilometr piyodalar va veloyo'laklar, gulkona qurilib, 50 ga yaqin tuni yoritish chiroqlari o'rnatildi. Yo'l yegasidan o'tgan kommuniksatsiya tarmoqlari to'liq yangilandi.

Loyiha qiyomi 57 milliard so'm bo'lgan mazkur obyektda piyodalar o'tish joylari, svetofor, yo'l belgilari va boshqa qurilmalar o'rnatiladi. Toyloq, Urgut va Samarqand tumanlarini azim shahar bilan bog'lovchi yo'l joriy yakunigacha foydalanimishga topshirilishi ko'nda tutilgan.

Dilmurod TO'XTAYEV.

## So'rang, javob beramiz O'ZGARISHSIZ TURGAN UY – JOYIMGA KO'CHIRMA OLISH UCHUN PUL TO'LADIMI?



- 2 ta yer uchastkam bor, biri kadastr qilinmagan. Shuni aukson savdosiga chiqarib, sotib olsam bo'ladimi?

N.ORIPOV,  
Samarqand shahri.

- Bo'sh turgan yer uchastkasi — binolar va inshootlar joylashmagan, hech qanday majburiyatlar yoki taqiqalar o'matilmagan hamda jismoniy va yuridik shaxslarga qonunchilikka muvoqiq ajratib berilмагan, davlat mulki bo'lgan, qishloq xo'jaligiga mo'ljalannagan yer uchastkasi hisoblanadi. Ikkinci yer uchastkasi bo'sh bo'lsa va qurilmalari bo'lmasa, auksiqona qo'yilishi mumkin. Lekin bo'sh turgan yerni e-auksionsda boshqa bir fuqaro yutib olish ehtimoli mavjudligini ham hisobga olish lozim.



- Turarjoyim 2017-yil davlat ro'yxatidan o'tgan. Yer mulkida hozirgi kungacha hech qanday o'zgarish bo'imagan. Lekin men xuddi shu uy-joyimga qaytadan ko'chirma olmoqchi bo'lsam, xizmat uchun yana pul to'lashim kerak bo'ladimi?

A.BEGIMOV,  
Toyoq tumani.

- Murojaatga ko'ra, awal davlat ro'yxatidan o'tkazilib, amalda bo'lgan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar (davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi) o'rg'isida guvohnoma berilgan yoki huquqni belgilovchi hujatiga ustaxt yozish yo'li bilan tasdiqlangan) to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron tarzda davlat reyestriga kiritish va reyestrdan ko'chirma berish davlat xizmatlari ko'rsatilgani uchun Vazirlar Mahkamasining 186-son qaroriga muvoqiq yig'imalr undirilmaydi.

Savolga Davlat kadastrlari palasati viloyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i Alisher XOLMANOV javob berdi.

dami" telegram botini takomillashtirish ishlari davom etmoqda. Maqsad undan foydaluvchilar ko'lami va imkoniyatlarini oshirish, ya'ni amaldagi qonunchiliklida mavjud jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan barcha imtiyoz va preferensiyalarni qamrab olish.

Tadbir davomida boshqarmada yo'iga qo'yilgan "Situatsion markaz" faoliyati bilan tanishirildi. Qayd etildiki, bugungi kunda barcha davlat va yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, FHDY idoralari to'liq kuzatuv kamerallari bilan jihatlangan. Usbu kuzatuv kamerallari Adliya vazirligi binosida BMT Taraqqiyot durastirning "O'zbekistonning qishloq hududlarida davlat xizmatlari" taqdim etishni takomillashtirish va boshqaruv darajasini oshirish" qo'shma loyihasi doirasida barpo etilgan "Situatsion markaz" bilan bog'langan.

Markaz orqali yuqorida nomlari keltirilgan adliya organlaridagi xizmat ko'rsatish jarayonini real vaqt rejimida kuzatish, elektron murojaatlar hamda axborot tizimlar holati bo'yicha monitoring qilish imkoniyati yaratilgan. Jurnalitlar viloyat adliya boshqarmasida faoliyati yo'iga qo'yilgan "Situatsion markaz" faoliyati bilan tanishdi.

## "MAHALLA YORDAMI": yangi telegram bot ishga tushirildi



Shuningdek, 57 nafray abylanuvchi mahkum va mahkumlar bilan ommaviy suhbat o'tkazildi. Ularning 20 nafari yakka tartibda qabul qilinib, murojaatlari tinglandi. Alohiда qabul jarayonida mahkum I.M. va mahkum M.A.lar ozodlikdan cheklangunga qadar 3 yil davomida shar'iy nikoh bilan yashab kelganligini bildirdi. Bugungi kunda ikkala ham 7-tergov hibxonasiда saqlanayotganligi uchun qonuniy nikohdan o'tishda amaliy yordam berishni so'radi.

Shu kunning o'zida Kattaqo'rg'on shahar FDY bo'limi mudirasi bilan bog'langanmizden so'ng, mahkum va mahkumaning qonuniy nikohdan o'tkazish haqidagi arizalari mudira tomonidan rasmiyashirilib, tibbiy ko'rkidan o'tish uchun yo'llanma berildi. Tibbiy ko'rk xulosasi bo'yicha ularga qonuniy tartibda nikoh guvonomasi beriladigan bo'ldi.

Tergov hibxonasiда joylashgan 5 ta "ombudsman qut'ilari ko'zdan kechirilganda xuddi shunday 6 ta murojaat olindii. Ularda bildirilgan masalalar yuzasidan tegishli chora-tadbirlari belgilandi.

Monitoring davomida aniqlangan kam-chiliklarni bartaraf etish bo'yicha hibxonaning mutasaddilari aniq muddatlar tavsiyalar berildi.

Diyor HUSANOV,  
Ombudsmanning viloyatdagi  
mintaqaviy vakili.

**Kun mavzusi**

Suvda cho'kkан одамнинг нифас олиши бир неча сониylар ichida to'xtaydi va hushini yo'qotadi. Agar uni 5 daqiqa davomida suvdan chiqarib, o'pka-yurak reanimatsiyasi o'tkazilmasa, miyaga kislorod yetib bormaydi va natijada to'qimalar o'lismi boshlaydi. 5-7 daqiqa dan keyin esa insonni hayotga qaytarish imkoniyati kamayadi.

**Suvga cho'kish tasodif emas**

Bolalar nazoratsiz qoldirilgani, kattalar esa spirlti ichimlik iste'mol qilgan uchun bu falokatga duch kelyapti

Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, respublikamizda 2023-yilning 1-yarvar holatiga ko'ra, 331 ta suzish havzasi mavjud. Ana shu suzish havzalarining 299 tasi shahar, 32 tasi qishloq joylarida. Yurtimizda aholi soni 37 milliondan oshganini hisobga olsak, suzish havzalari ehtiyojimizni qondirishga yetarli emas.

Xususan, qishloq joylaridagi suzish havzalari har bitta tumanga bittadan ham to'g'ri kelmaydi. Bu odamlarning taqilangan hududlarda hayotini xavf ostiga qo'yib, cho'milishi asosiy sabab. Ekspertiza xulosalarini hamda tahillariga qaraganda, aksariyatlarda suvda cho'kish holati avvalo, taqilangan joylarda cho'milishi, suzishni bilmaslik yoki spirlti ichimlik iste'mol qilish oqibatida yuzaga kelmoqda. Viloyatimizda keyingi 3 yilda Darg'om kanalida 3 ta, Zarafshon daryosida 2 ta, Kattaqo'rg'on suv omborida 1 ta holatda fuqarolarning suvda cho'kib vafot etishi qayd etilgan.

- 2021-2023-yillarda mobaynida viloyat hududida fuqarolarning suvda cho'kib halok bo'lishlari bilan bog'liq holatlar monitoringiga ko'ra, halok bo'lganlarning 42,5 foizini 23 yoshdan 53 yoshgacha, 35 foizini 13 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan fuqarolar hamda 22,5 foizini 12 va undan kichik yoshda bo'lgan bolalar tashkii etmoqda, - deydi Samarqand shahar FVB tezkor bo'llinma boshlig'i Sherzod Murodov. - Keyingi 5 yil davomida esa suvda cho'kib halok bo'lgan yoshi katta fuqarolarning 70 foizi spirlti ichimlik iste'mol qilgan holda cho'milgan. Bolalar esa ota-onalar nazoratisiz qolgani sabab cho'kib, olamdan o'tayotgan kuzatilmogda.

- Keyingi paytda yoz mavsumida cho'kish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalar asosan yoshlar o'tasida ko'p uchrayapti, - deydi viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tabiy va texnologususiyatlari favqulodda vaziyatlar bo'limi bosh inspektori Anvar To'rayev. - Bunga ota-onalarning farzandlarini nazoratsiz qoldirishi, taqilangan hududlarda cho'milish va xavfsizlik qoidalarini bilmaslik sabab bo'imoqda. Boshqacha aytganda, bunday joylarda cho'milayotganlar o'limni bo'yninga olyapti. Birinchi-

dan, ruxsat etilmagan suv havzalarida suvning gigiyenik holati talabga javob bermaydi. Ikkinchidan, suv sathining chuquurligi ma'lum emas. Uchinchidan, suv ostida turli zaharli hasharot va jonzotlar bor. To'rtinchidan, suv harorati doimiy past va oqim tez.

Bugungi kunda viloyatda maxsus vazifalarni bajaruvchi mintaqaviy qutqaruv otriyadi tarkibida qutqaruv g'avvoslar brigadasi mavjud bo'lib, ularda 10 nafer g'avvos faoliyat olib bormoqda. Suvda qutqarish ishlari amalga oshirish bo'yicha barcha yetarli texnika va asbob-anjomlar mavjud va shay holat-



ga keltirilgan. Aytish joizki, joriy yilning o'tgan davrida suvda cho'kish bilan bog'liq mudhish hodisa kuzatilmadi.

Viloyatda 20 ta cho'milish suv havzasasi ro'yxatdan o'tgan. Cho'milish ruxsat etilmagan joylar (ko'llar, daryolar, kanal va ariqlar)da ta'qiqlovchi belgilari o'rnatildi. Ayni paytda mahallalarda, o'quv muassasalarini hamda suv xo'jaligi obyektlarida profilaktik tadbirlar davom etyapti.

Mutaxassislar tavsiyasiga ko'ra, cho'kish bilan bog'liq hodisalarining yuz bermasligi uchun avvalo, ruxsat etilgan joylarda cho'milish va xavfsizlik qoidalari qat'iy riyoq qilish lozim. Birinchi navbatda harorati issiq bo'lgan va shamol bo'Imagan vaqtida cho'milish tavsiya etiladi. Qorin ochi bo'iganda, charchaganda, tashnalikda, yaqinda bemorlikdan sog'ayganda, spirlti ichimlik ichganda, yolg'iz bo'iganda va quyosh urish xavfi bo'lgan holarda cho'milish maqsadga muvoqfi emas.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Bu haqda kiberjinoyatlarning oldini olish hamda aholini kiber olamdag'i tahlidlardan asrashga bag'ishlangan matbuot anjumanida ma'lum qilindi.

Respublikamizda joriy yilning 1-iyulidan 31-iyuliga qadar "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" (Cyber-month) o'tkazilmoqda. Olylik doirasida tashkil etilgan tadbirda viloyat hokimining raqamlashtirish masalalari bo'yicha maslahatchisi Ansor Anvarov, viloyat ichki ishlar boshqarmasi tezkor qidiruv xizmati kiberxavfsizlik bo'limi boshlig'i Azamat Yo'Idoshev, ichki ishlar vazirligi kiberxavfsizlik markazi mas'ul xodimi Shuhrat Mamadoliyev hamda boshqarma va tashkilotlar mas'ullari ishtirot etdi.

- Kiberjinoyat qurboni bo'layotganlarning aksariyatini yoshlar tashkil etmoqda,

- deydi viloyat ichki ishlar boshqarmasi tezkor qidiruv xizmati kiberxavfsizlik bo'limi boshlig'i Azamat Yo'Idoshev.

- Jumladan, viloyatda kiber jinoyatlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan bir yarim baravar oshgan va aldon qurboni bo'layotganlarning aksariyati 19-35 yoshdagi fuqarolardir. Ushbu firligalar asosan uch xil usulda - telefonga maxfiy kod yuborish yoki bank xodimi sifatida "sms kodni olish" natijasida, chet eldan meros yoki jabrlanuvchiga noma'lum sharoitda yordam berish, moddiy yordam, onlaysen kredit, yutuqli o'yin g'olibni kabi soxta aldov havolalar hamda soxta onlaysen birja va treyding orqali amalga oshirilgan. Kiber jinoyatlarning 40 foizi Samarqand shahrida 17-35 yosh toifasida, 30 foizi Kattaqo'rg'on shahar,

# Kiber jinoyatlar 1,5 baravar oshgan

Eng ko'p jinoyat Samarqand shahrida sodir etilgan



Samarqand, Past Darg'om va Urgut tumanlarida 35-45 yosh toifasida, 20 foizi boshqarma tumanlarda 45 yoshdan yuqori yosh toifasida kuzatilgan.

Matbuot anjumanida bu kabi jinoyatlarning oldi olish, aholi o'tasida targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish maqsadida bir qator tanlovlari e'lon qilingani ma'lum qilindi.

- Axborot texnologiyalari asrida kompyuter va raqamlashtirilgan turli xil texnikalar rivojlangan sari bundan g'arazli maqsadda foydalanuvchilar ham ortib

bormoqda, - deydi ichki ishlar vazirligi kiberxavfsizlik markazining mas'ul xodimi Shuhrat Mamadoliyev. - Bu kabi jinoyatlar jabrlanuvchilarining o'z harakatlar natijasida sodir etilmoqda. Ya'ni, ijtimoiy tarmoqlarda oson pul topish, shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilish, bank kartasi kodini himoyalamaslik, telefoniga zararli mobil ilovalarni o'rnatish, ijtimoiy tarmoqlarda turli bonusli va konkursli o'yinlarda qatnashish bunga sabab bo'limoqda.

**F.FAXRIDDINOV.**

## Germaniyaga ketmoqchi ekan..

**Globallahuv sharoitida nafaqat yurtimiz, balki boshqa davlatlarda ham farovon hayot ilinjida rizq izlash keng tus olgan. Ammo har ishning o'z tartibi bo'lganidek, biror davlatga chiqishda unga kirish uchun ruxsat olish, muayyan qoidalarga amal qilish talab qilinadi.**

Kattaqo'rg'on tumani Jumaboy mahallasi Oltinsoy qishlog'iда yashovchi 1993-yilda tug'ilgan Abdujalol Abdunazarov Germaniyaga borish uchun "qulay" vaziyatdan foydalanoqchi bo'lgan...

U joriy yil 22-mart kuni "Vladivostok ish" telegramm mesenjeri guruhiga qo'shilib, guruhda o'zini farg'onaliq Muhammad deb tanishtirgan shaxsga ishonadi. Uning "pasportinga Germaniya davlati vizasini urdirib barcha hujjalarni tayyorlataman, buning evaziga 1200 AQSh dollarri berasan", deganiga rozi bo'ladi.

A.Abdunazarov pulni viza chiqqanidan keyin berishga kelishib, oldindan 200 AQSh dollarri taqdim qiladi. U bu pulni Doniyor Numanovich nomiga ochilgan bank kartasiga tashlab bergan.

E'tibor qiladigan jihat shuki, A.Abdunazarov Muhammadjon bilan faqat "WhatsApp" mesenjeri orqali gaplashgan.

Fuqarolik pasportiga Germaniya davlati vizasi urilgandan keyin 91000 rublni (1000 AQSh dollarri) bergen A.Abdunazarov joriy yil 4-iyun kuni uchish uchun "Samarqand-Sheremetev" aviareysiga aviachipta sobit olgan. "Samarqand" aeroporti nazorat hududidan o'tayotgan vaqtida esa xorija chiqish biométrik pasportidagi Germaniya davlatiga kirish vizasi qalbaki ekanligi aniqlanib, hujjalashtirishgan.

Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli muddasi bilan ish qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

**Farrux MO'MINOV, viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimi, podpolkovnik.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### ISSIQLIK TA'MINOTI XIZMATLARI NARXI O'ZGARMOQDA!

Xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashining 2024-yil 1-iyulida VI-100-58-7-0-K/24-soni qaroriga asosan, Samarqand shahri va Nurobod tumanida issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan aholiga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun quyidagi narxlar belgilanmoqda:

Xizmatlar turi	O'Ichov birligi	Taklif etilayotgan narx (ta'rif, so'mda)
<b>Samarqand shahri</b>		
Aholi uchun markaziy isitish (1 kv.metr uchun 1 oyga, QQS bilan)	kv.metr	2 380
Aholi uchun issiq suv ta'minoti (1 ta odam uchun 1 oyga)	bir oyda fuqaro uchun	28 915
Aholi uchun issiq suv ta'minoti hisoblagichi bo'yicha (1 metr kub uchun)	metr kub	7 197
Aholi uchun ta'rif (1 Gkal uchun)	Gkal	130 834
<b>Nurobod tumani</b>		
Aholi uchun markaziy isitish (1 kv.metr uchun 1 oyga, QQS bilan)	kv.metr	5 664
Aholi uchun issiq suv ta'minoti (1 ta odam uchun 1 oyga)	bir oyda fuqaro uchun	78 615
Aholi uchun issiq suv ta'minoti hisoblagichi bo'yicha (1 metr kub uchun)	metr kub	20 208
Aholi uchun ta'rif (1 Gkal uchun)	Gkal	367 338
<b>"ISSIQLIK TA'MINOTI" DUK.</b>		

#### TOPGANGA MUKOFOT!

Muradova Maxaram Kasimovna va Xotamov Farruxbek Nasimjonovich nomidan ishonchnoma asosida Djabairova Djamiliya Yakubjanovnalar o'tasida Samarcand shahri "Tojimahal" MFY, Abu Bakr Rozi ko'chasi 10-uy, 13-soni kvar-tir uchun tuzilgan, Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirova notarial idorasidan 2022-yil 17-iyundan tashiqlanib, Ksh 087380 SA blankada tuzilgan, 20201714002492 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib

oluvchidagi nusxasi Samarcand shahrida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.  
**Telefon: +99895-178-88-35.**  
Fuqaro Djurakulov Aminjon Aslievichning (Pasport AB 5785023 30.01.2017 yilda Samarcand shahar IIB tomonidan berilgan) haydovchilik guvohnomasi Samarcand shahri hujdida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.  
**Telefon: +99897-927-86-68.**

#### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Dusmatov Ravshan Bozorovichga (2021-yil 16-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Kabilov Tursun Jaxnarovichga (2023-yil 5-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Feruza Zoirova notarial idorasida marhum Botirova Zulfira Nurilloyevnaga (2023-yil 23-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Feruza Zoirova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Abbasov Djamol Djaxonovichga (2019-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Panjob ko'chasi, 4-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minquolovich notarial idorasida marhum Eminov Umarga (2012-yil 1-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi och

Samarqand davlat chet tillar instituti professori, filologiya fanlari doktori Dilorom Salohiy 65 yoshga to'ldi. O'zbek mumtoz adabiyotining ko'zga ko'rning olimlariidan biri bo'lgan opa bir nechta kitoblar muallifi, ko'plab yoshlarning ustozi hisoblanadi. Dilorom opaning, ayniqsa, navoiyshunoslik ilmiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Olimani qutlug' yosh bilan tabriklab, ilmiy faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz!

## BUYUK ISHQ, KUYUK KO'NGIL VA BULBULDEK BIYRON SHE'RIYAT

Malik ul-kalom mavlono Lutfiying ijodi manbalarda yuksak ehtirom bilan tilga olinadi. Jumladan, g'azal mulkinining sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida Mavlono Lutfiijod turkiy she'riyatning yozma adabiyot an'analarini doirasida gi taraqqiyotini boshlab berganligini ta'kidlaydi.

Mavlono Lutfiijod turkiy she'riyatni mumtoz she'riyat darajasiga ko'tarish bilan birga, mumtoz fors-tojik she'riyatiga aks ta'sir ham o'tkazdi. Akademik B.Valixo'jayev «Malik ul-kalom Mavlono Lutfi» nomli asarida bu haqda shunday yozadi: «Abdurahmon Jomiy she'riyat, jumladan, g'azallari ko'zdan kechirilganda uning mavlono Lutfiijod uslubiga xos yangiliklarni qo'llab-quvvatlaganining guvohi bo'lish mumkin. Bu esa o'z navbatida, Abdurahmon Jomiyning mavlono Lutfiijod an'analarini, she'riyatida yangi timsollar yaratish uslubini davom ettirganidan dalolat beradi». Olim fikrining isboti uchun mavlono Lutfiijod she'riyatidagi gul, lola, oy, quyosh kabi timsollarning yangicha talqini haqida so'z yuritib, ana shunday hol Abdurahmon Jomiy g'azallarida ham mavjudligiga e'tibor qaratadi. U Jomiyning «Tubiki ba sidra sar baland ast» misrasi bilan boshlanuvchi g'azalini tahlil qilar ekan, g'azalda mahbubning niyoyatda go'zalligi va unga barcha hayrat bilan boqib, ta'zim qilishi tasvirlanib, bu mavlono Lutfiijod she'riyatidagi holat va uslubni eslatadi, deya xulosa qiladi. Abdurahmon Jomiy she'riyatida paydo bo'lgan bu an'ana abalta, keyingi fors-tojik she'riyat vakillari ijodida ham qo'llanilgan. Shu jihatdan deydi: «...mavlono Lutfiijod merosi va an'anasi faqat turkigo'ylar tomonidan e'zozlanib qolmay, balki forsiygo'ylar tomonidan ham hurmat va ehtirom bilan o'rganilib, uning an'analarini o'ziga xos tarzda davom ettirilgan. Bu esa niyoyatda muhim bir hodisadir».

Mavlono Lutfiying mumtoz Sharq she'riyati ga kirtigan yangiliklari asosan an'anaviy timsollarni yangi, ko'pincha butunlay teskari ma'noli tashbehtar bilan tasvirlash, favqulodda dono, serzavq va kutilmagan badiiy epizodlar yaratish, rasmiy g'azalga xalq og'zali ijobi an'analarini olib kirish kabi hodisalaridan iborat. Masalan, gul va tikan obrazlari Sharq she'riyatida niyoyatda tabiy holat. Ammo Lutfiijod an'anaga ko'ra, ijobji tarzda tasvirlangan gul – go'zallik ramzin salbiy tomonidan kashf etilgan «gul – o'g'ri», shuning uchun u jazolangan, mazmunda ifoda etadi:

*Gul qamarindan o'g'irlab oldi jamol, aning uchun,  
Shoh rabe' oni tikan doriga o'g'ridek osar.*

Shoir lirikasida o'g'ri tashbehi badiiy timsol ifodasida yangi mazmun yaratish, yangi ruhiy holat paydo qilish maqsadida qo'llaniladi. Chunki shoir an'analar qobig'ida qolib ketishni istamaydi. Gulning o'g'rligi shoirning ko'p g'azallarida nuktadonlik bilan kashf etiladi. Masalan:

*Gul eltar ol ila ul chehradin rang,  
Qizorsa, o'g'ri uchun el urar kech.*

Qand ham o'g'ri, u shirinlikni go'zal yor lablaridan o'g'irlagan. Shuning uchun el uni yalang'och qilib suvda eritadi:

*Labilgindan chun suchukluk qand o'g'irlar,  
Solurlar el oni suvg'a yalang'och.*

Ko'z – o'g'ri, oshiq boshiga ishq balosini keltirib, ko'ngulni beqaror qilgan udir:

*Nozukluk ila olding ko'nglumi boqib o'g'rin,  
Nozuk kishilarning, ki har ne qilan nozuk.*

Mushk – o'g'ri, u yor sochlaridan xushbo'ylikni o'g'irladi, shu sababdan uni Xo'tanda band etdilar. Shoir bu baytda ham iyohn qilib, ham talmeh bilan Xo'tan ohusiga ishora etyapti:

*Sochingdin chun o'g'urlar mushk xushbo'y,  
Qilurlar band-band oni Xo'tanda.*

Go'zal yor husnining o'g'rilari shunchalik ko'p ekan, ularni kechirsa bo'ladi. Chunki uning o'zi ham bu illatdan pok emas. Yorning go'zal zuflari – o'g'ri. Shoir itob qiladi:

*Ey zulfu tun o'g'risiyu la'li labi xuni,  
Olam bori bu o'g'riyu ul xunni zabuni.*



Yana: Ko'nglumi sening zulfung olib  
gizladi, bildim,  
O'g'ri kibi el ichra sarafganda dagulmu?

Lutfiijod o'z ijodiyotida inson go'zalligini, komil xilqatni vasf etdi. Uning asosiy qahramoni – yer go'zali, insoniy go'zalidir. Uning uslubi ham niyoyat samimi, sodda, xalqchildir. Buni shoir o'zi ham e'tirof etadi:

*Ne ko'ngli sodda eldur, ishq elikim,  
Seningekek bevafoni yor derlar.  
Shoir she'riyatida favqulodda donishmandona  
aytilgan, kutilmagan yangi tashbehtar bilan ziynatlangan shohbaytlar, lavhalar juda ko'p. Mana bu  
baytda yangi bir tashbeh namoyon bo'lgan:  
Chun kishining qonin ayturlarki, yotmas, ne ajab,  
La'lingizda ne uchun mundoq yotur  
qonim mening?*

Ba'zan shoir mubolag'ada "g'uluv"ga ketadi. Ammo ko'p maqtalmagan bu san'at ham shoir qalamni bilan chiroyli, sodda, xalqona ohang kasb etadi:

*Gar vatan Lutfiijod ko'zinda tutmading,  
yo'qtur ajab,*

*Ev qo'pormog'liq erur dashvor Jayhun ustina.  
Ya'ni, garchi Lutfiijod ko'zining qarog'da ko'rining  
mading – yoniga kelmadding – bunday qilolmasding,  
albatta, ajablarni joyi yo'q. Chunki Lutfiijod  
ko'zlar yor vaslin istab tinmay yosh to'kmoqda  
Jayxun daryosi kabi. Jayxun ustida yu qurmoq  
osonmi!?*

Oddiy, hayoti, turkona lavhalarni mumtoz g'azal darajasida tasvirlab berishda mavlono Lutfiijod yuksak mahorat va uslubni namoyish etadi. U sodda hayoti hodisalardan umumal badiiy ifodani, oddiy voqeadan murakkab san'atni yuzaga keltiradi. Mana misollar:

*Etak yig'ib yurusa, jilvasi balo qiladur,  
O'tarda yeng solishi elni  
mubtalao qiladur. ...*

*Erur jahon ko'zidin g'uncha  
og'zidek maxfiy,  
Dudog'i jonima ulkum kulo-kulo qiladur.*

*Yoki yana:  
Ittingning zikri doyim xayr ila o'Isun,  
afollohkim,  
Sanga ahvoli zorimni kecha  
ko'rgach xabar qildi.*

Mavlono Lutfiijod she'riyati faqat ishqiy kechinmalardan, visol va hijron tasvirlari, oshiq va ma'shuqa muammolarini yig'indisidan iborat bo'lmay, unda axloqiy, tarbiyaviy ko'rsatmalar, pand-o'g'itlar ham mavjud. Shoir qalbida shafqat, rahmlilik tuyg'usi bo'lmagan, dili qat-tiq kishilarni quyoschaliq nurga boy bo'lsa ham jamiyat hayoti uchun kerak-siz, foydasiz deb hisoblaydi. U oshiqona g'azal qat-qatiga o'zining ma'rifiy fikrlarini singdirib yuboradi:

*Kishikim, yo'qturur mehru vafosi,  
Agar xurshiddur andin ne hosil!?*

Mavlono Lutfiying dilbar hayotesarvar, ijodiy merosini tanqli adabiyotshunos olimlar Sodirxon Erkinov, Erkin Ahmadxo'jayev, Boturxon Valixo'jayevlar keng va batafsil tahlil etib bergen. Bu olimlar Lutfiying hayoti va adabiy merosi haqida yirik tadqiqotlar yaratib, shoir merosini fanga va xalqqa taqdim etishda katta xizmat qilganlar.

Malik ul-kalom mavlono Lutfiying buyuk ishq, kuyuk ko'ngil va bulbuldek biyron til bilan yaratilgan she'riyati ummoni bizga adabiyotning go'zalligi va latofanini namoyon etadi:

*Bir kun ul husn elining sultoni  
solg'ay deb qulog,  
Ishq Lutfiying so'zini surri  
maknun ayladi.*

*Dilorom SALOHIY,  
SamDChTI professori,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
yoshlar murabbiysi.*

Ertak – tarbiya vositasi

## Ertak – real hayot bu

“O'zbek sehrli ertaklari tipologik katalogi”ni o'qib

Tajriba shuni ko'rsatyaptiki, biz bilmagan narsamiz to'g'risida tasavvurlarimizni turlicha talqin qilaveramiz. Misol uchun ertaklar haqida. Bizning avlod, umuman, ota-bobolarimiz ertak eshitib, ertak aytib yashagan. Bugungi avlod uchun cho'pchakka o'xshab tuyulgan ana shu ertaklar har bir nasihatdan, dakkidan ustun turgan. Chunki ularning mazmuni ruhiyatimizga singgan. Ertaklarga ishonishimizning sababi shundaki, ular murakkab holatlarda vaziyatdan qanday chiqishni o'rgatgan. Ming afuski, biz adabiyotimizdagi bunday ommabop janr imkoniyatlaridan yetarlicha foydalana olmayapmiz. Vaholanki, rivojlangan davlatlarda ertaklar asosida yaratilgan badiiy filmлarni katta-yu yosh birdek ishtioq bilan tomosha qilmoqda.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, germaniyalik tadqiqotchi Gabriyele Keller va o'zbekistonlik olimlar Xurram Rahimov hamda Mamatqul Jo'rayerlar hammulligligi-da yaratilgan ikki jildlik o'quv qo'llanmasi sohadagi chinakan inqilob bo'idi, desak arziyi. Chunki ular o'zbek xalq ertaklarning mazmun-mohiyati, ijtimoiy hayotdagi o'rnii, topilmalar, obrazlarning inson ruhiyatiga ta'siri, ertaklarning davr ruhiga mos o'zgarib turishi to'g'risida puxta tasnif yaratada qolmoqda.

Ushbu qo'llanmaning yozilishiga 2017-yil Samarqand shahri kunda fotiha berilgan edi. “El merosi” teatrda professor Y.Abdullayev raisligida o'tgan davra suhbatiga Samarqand shahri faxriy fuqaroligini olgan Gabriyele xonim tashrif buyurib, o'zbekistonlik olimlar bilan sehrli ertaklarimiz katalogini yaratishga bel bog'laganligini ma'lum qildi. Darvoqe, olma bundan avval Alisher Navoiy hayoti va faoliyati bilan jiddiy qiziqqan, bu to'g'risida bir qator ilmiy xulosalar bergen, alloma g'azallaridan nemis tiliga o'g'irib ulgurgan edi. Muhibi, u O'zbekistonni, uning xalqini hurmat qilgani uchun tilini va adabiyotini tadqiq qila boshlaganini aytgan edi.

Muhiblari ushbu qo'llanmani yaratish jarayonida mammakatimizning turli burchaklarida og'izdan-og'izga ko'chib kelayotgan ertaklarni yozib olishgan, bu

ertaklarning matnlarini tahlil qilishgan. Xususan, uning epik xususiyatlari, ijodiy yondashish yo'nalishi hamda qahramonlarning tinglovchi ruhiyatiga ta'siri masalalari puxta o'rganishgan. Jumladan, ertaklardagi “sehrli raqiblar”, “sehrlangan hamrohlari”, “sehrli vazifalar”, “sehrli yordamchilar”, “sehrli buyumlar” kabi holatlар dunyo ertakchiligidagi amalga oshirilgan bunday ishlar yuzasidan ham ma'lumot berishgan.

Darhaqiqat, ertak ijtimoiy tarmoqda ayrimlar ta'kidlaganidek, cho'pchak yoki xayoliy narsalar emas. Ertak to'qima holat ham emas. U xalqimizning avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib kelayotgan ta'siri tarbiyaviy vositasidir. Ertaklardagi qahramonlar hammasi ramziy ma'noga ega. Ular inson ongidagi, shururidagi keskin o'zgarishlarni ifoda etadi. Jumladan, ajdaho – bu shunchaki yirtiqch emas, balki fe'limizda, ko'nglimizda paydo bo'lgan yomon odatlardir. Odamlarni murakkab vaziyatdan olib chiqib keta oladigan qahramonlar esa aql-zakovatning timsolidir. Binobarin, ertaklar dunyoda hamisha yaxshii va yomon, yolg'onchi va halol baqamti yashashini (qarg'a – qaqimchi ekan, chumchuq – chaqimchi ekan) aytish barobarida qaysi fe'l-atvov va harakatlar odamlarga yaxshilik keltirishini tushuntirib boradi. Shu jihatdan olganda o'zbek xalq ertaklarining ushbu tasnifi adabiyotimiz xazinasiga qo'shilgan munosib ganjinadir.

Farmon TOSHEV.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

### “II Xalqaro maqom san'ati anjumani”da faol ishtirok etdi

Joriy yilning 27-30-iyun kunlari Jizzax viloyatining Zomin tumani-dagi “Zominsoy” dam olish majmuasida II Xalqaro maqom san'ati anjumani bo'lib o'tdi.

Ikkinci marta o'tkazilgan anjumanda 80 ga yaqin davlatdan 400 nafardan ortiq ishtirokchi jam bo'ldi. Ular orasida viloyatimizdan 100 nafarga yaqin maqom san'ati vakillari, ansambl jamoalari, hurnarmandlar va soha mas'ullari ishtirok etdi.



Zomin anjumanida jamoamiz xonanda va sozandalari ansambl egalladi. Yak-kaxon ijrochiligi bo'yicha Tojikiston milliy konservatoriysi guruhi yakkaxon ijrochi solisti Xurshid Ibrohimzoda g'olib bo'ldi.

Tadbir doirasida tashkil etilgan xalqaro musiqa yarmarkasi, maqom san'atiga oid turli ko'rgazmalarda viloyatimiz madaniyat va san'at xodimlari hamda hurnarmandlar faol ishtirok etdi. Anjuman yakunida yurtimizning bir guruh soha fidoyilar “Madaniyat va san'at fidokori” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Abdunabi TO'XTAYEV, O'zbek milliy maqom san'ati markazi viloyat hududiy bo'limi direktori.

### 7-IYUL Normurod NARZUL-LAYEV – (1934-2006)

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri.

### 8-IYUL Qo'chqor QARSHI-YEV – (1923-1945)

yilda Ishitixon tumanida tug'ilgan. Ikkinci jahon urushi qatnashchisi, qahramon.

### 9-IYUL Bekmurod YO'LDO-SHEV – (1947-2017)

Paxtachi tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.

### 10-IYUL Toshpo'lat TUGA-LOV – 1964-yilda

Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

**MUASSIS:** Samarkand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarkand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 674 nusxada chop etildi. Buyurtma 347. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarkand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy,